

**“NKMK” AJning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni  
ko‘rib chiqish natijalari haqidagi  
HISOBOT**

*2024-yil 1-oktabr holatiga*

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJga 2024-yilning o‘tgan 9 oyi davomida korrupsiyaga oid jami **44** ta murojaat kelib tushgan. Shundan, 28 tasi yozma shaklda, 13 tasi O‘zbekiston Prezidenti virtual qabulxonasi orqali, 3 tasi jamiyat elektron manzili orqali kelib tushgan.

Mazkur murojaatlar asosida **6** ta xizmat tekshiruvi olib borilgan va **38** ta o‘rganish o‘tkazilib (*2 tasi bo‘yicha o‘rganish tugallanmagan*), tegishli tartibda murojaat mualliflariga javob xatlari yuborilgan.

Shuningdek, murojaatlarni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha **38** tasi bo‘yicha tushuntirish berilgan bo‘lsa, **4** tasi bo‘yicha asoslar mavjud bo‘lganligi sababli qisman qanoatlantirilgan.

**7** nafar fuqaro tomonidan yuborilgan **7** ta murojaatlarni ko‘rib chiqish davomida aniqlangan holatlar (*yoki murojaatning bir qismi*) vakolat doirasida ko‘rib chiqish uchun tegishliligi bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi.

Murojaatlarni ko‘rib chiqish davomida, aniqlangan qoidabuzarlik holatlari yuzasidan **2** nafar xodim (*shundan 1 nafari rahbar*) intizomiy javobgarlikka tortilgan.

**Komplayens xizmati boshlig‘i**

**R.F. Avezov**